



## BO‘LAJAK ARHITEKTORLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI AMALIY FAOLIYATGA YO‘NALTIRISH MUAMMOLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20082961>

**Shakarboy Eliboyevich O‘rinboyev**

*Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat*

*arxitektura-qurilish universiteti*

*“San‘at” kafedrasida dotsenti*

**Izoh:** Ushbu maqolada Oliy ta‘lim muassasalarida me‘morchilik mutaxassislarini tayyorlash jarayonida amaliy tayyorgarlikni kuchaytirish asosida ta‘lim samaradorligini oshirishga qaratilgan metodik tizimni ishlab chiqish, bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash jarayonini me‘morchilik ta‘limida qo‘llanilayotgan ta‘lim metodlari, vositalari va shakllari bilan hamohanglikda ushbu jarayonni takomillashtirishga qaratilgan samarali ta‘lim metodikasini amaliyotga joriy etishdagi o‘z yuechimini kutayotgan muammolar haqida fikr yuritiladi.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются проблемы, требующие решения при разработке методической системы, направленной на повышение эффективности образования на основе усиления практической подготовки в процессе подготовки специалистов-архитекторов в высших учебных заведениях, а также при внедрении эффективных образовательных методик, направленных на совершенствование процесса подготовки будущих специалистов в соответствии с образовательными методами, инструментами и формами, используемыми в архитектурном образовании.

**Abstract:** This article examines the problems that need to be addressed in the development of a methodological system aimed at increasing the effectiveness of education by strengthening practical training in the process of training architectural specialists in higher education institutions, as well as in the implementation of effective educational methods aimed at improving the process of training future specialists in accordance with the educational methods, tools and forms used in architectural education.

**Kalit so‘zlar:** Me‘morchilik, amaliy mashg‘ulotlar, nazariy bilimlar, zamonaviy me‘morchilik, standart yuechimlar, amaliy ko‘nikma, tajriba, kasbiy kompetensiyalar, loyiha-studiyaviy (design studio) tizimi, arxitektura maktablari.

**Ключевые слова:** Архитектура, практическое обучение, теоретические знания, современная архитектура, стандартные решения, практические навыки, опыт, профессиональные компетенции, система проектных студий, архитектурные школы.



**Keywords:** *Architecture, practical training, theoretical knowledge, modern architecture, standard solutions, practical skills, experience, professional competencies, system of design studios, architectural schools.*

Hozirgi globallasuv va raqobat sharoitida oliy ta'lim muassasalarida me'morchilik mutaxassislarini tayyorlash jarayoniga qo'yilayotgan talablar tobora oshib bormoqda. Me'mor nafaqat nazariy bilimlarga ega bo'lishi, balki ularni amaliy faoliyatda qo'llay oladigan, ijodiy fikrlaydigan, loyiha yechimlarini mustaqil ishlab chiqish qobiliyatiga ega mutaxassis sifatida shakllanishi lozim. Shu nuqtai nazardan, me'morchilik ta'limida amaliy tayyorgarlik yetakchi o'rin tutadi.

Amaliy tayyorgarlik — bu talabalarda kasbiy faoliyatga oid ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan o'quv-tarbiyaviy jarayon bo'lib, u nazariy bilimlarni mustahkamlash, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish va kelgusidagi mehnat faoliyatiga tayyorlashga xizmat qiladi. Me'morchilik ta'limida amaliy tayyorgarlik narsaning asliga qarab chizish, qo'yilmani rangda tasvirlash, hajmi xis qilish, loyihalash, maket tayyorlash, grafik ishlash, kompyuter dasturlari bilan ishlash, qurilish materiallari va konstruktiv yechimlarni tahlil qilish kabi faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, faqat nazariy bilimlar bilan cheklangan ta'lim jarayoni talabalarda kasbiy kompetensiyalarni to'liq shakllantira olmaydi. Me'morchilik fanlarining o'ziga xos jihati shundaki, ular amaliyot bilan

chambarchas bog'liq bo'lib, har bir nazariy tushuncha amaliy mashqlar orqali o'zlashtirilganda samarali natija beradi. Shu sababli amaliy tayyorgarlik me'morchilik ta'limining ajralmas qismi hisoblanadi.

Amaliy tayyorgarlikning ahamiyati, avvalo, talabalarda loyihaviy tafakkurni shakllantirishda namoyon bo'ladi. Loyihalash jarayonida talaba arxitektura-rejalashtirish qarorlarini qabul qilish, funksional va estetik talablarni uyg'unlashtirish, muhit bilan ishlash ko'nikmalarini egallaydi. Bu esa uning kelgusida mustaqil ijodiy faoliyat olib borishi uchun mustahkam asos yaratadi.

Shuningdek, amaliy tayyorgarlik talabalarning ijodiy qobiliyatlari va mustaqil fikrlashini rivojlantiradi. Amaliy mashg'ulotlar, studiya ishlari va ijodiy topshiriqlar jarayonida talabalar standart yechimlardan chiqib, yangicha yondashuvlarni izlashga o'rganadilar. Bu esa zamonaviy me'morchilikda talab etiladigan innovatsion fikrlashni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Amaliy tayyorgarlikning yana bir muhim jihati — nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlashdir. Talaba o'rgangan nazariy bilimlarini amaliy ishlar orqali sinab ko'radi, xatolarni tahlil qiladi va o'z ustida ishlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu jarayon bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishga hamda ularni



real kasbiy vaziyatlarda qo'llashga tayyorlaydi.

Bundan tashqari, amaliy tayyorgarlik mehnat bozori talablariga javob beradigan raqobatbardosh mutaxassis tayyorlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Qurilish va arxitektura sohasida ish beruvchilar, avvalo, amaliy ko'nikma va tajribaga ega bo'lgan mutaxassislarni afzal ko'radilar. Shu bois oliy ta'lim muassasalarida amaliy mashg'ulotlar ulushini oshirish, ishlab chiqarish amaliyotini samarali tashkil etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

**Me'morchilik ta'limida amaliy tayyorgarlikning o'rni va ahamiyati.** Zamonaviy oliy ta'lim tizimida me'morchilik mutaxassislarni tayyorlash jarayoniga qo'yilayotgan talablar jamiyat va mehnat bozori ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda tobora takomillashib bormoqda. Me'morning kasbiy faoliyati nafaqat nazariy bilimlar, balki murakkab ijodiy va amaliy masalalarni hal etish qobiliyatini ham taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, me'morchilik ta'limida amaliy tayyorgarlik muhim pedagogik omil sifatida namoyon bo'ladi.

Pedagogik adabiyotlarda amaliy tayyorgarlik kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi asosiy tarkibiy qism sifatida talqin etiladi. Xususan, B.T.Lixachyov ta'kidlaganidek, kasbiy ta'limda nazariya va amaliyot uyg'unligi ta'minlanmagan holda yuqori malakali mutaxassis tayyorlash imkoni cheklanadi [1]. Me'morchilik ta'limi esa

o'z tabiatiga ko'ra amaliy faoliyatga yo'naltirilgan bo'lib, har bir nazariy bilim amaliy mashg'ulotlar orqali mustahkamlanishi lozim.

Me'morchilik ta'limida amaliy tayyorgarlikning o'rni, avvalo, talabalarda **loyihaviy tafakkurni** shakllantirish bilan izohlanadi. Loyihalash jarayonida talabalar arxitektura-rejalashtirish yechimlarini ishlab chiqish, muhitni tahlil qilish, funksional, konstruktiv va estetik talablarni uyg'unlashtirish ko'nikmalarini egallaydilar. Bu esa ularning kasbiy faoliyatga tayyorlik darajasini oshiradi. N.N.Kiselyovning tadqiqotlarida me'morchilik ta'limida studiyaviy va loyihaviy mashg'ulotlar talabalarning mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishi alohida ta'kidlangan [2].

Amaliy tayyorgarlikning ahamiyati talabalarning ijodiy qobiliyatlari va mustaqil fikrlashini rivojlantirishda ham yaqqol namoyon bo'ladi. Amaliy topshiriqlar, maketlash, grafik va kompyuter loyihalash ishlari orqali talabalar o'z g'oyalarini vizual va konstruktiv shaklda ifoda etishga o'rganadilar. Bu jarayonda ular innovatsion yondashuvlarni izlash, zamonaviy arxitektura tendensiyalarini hisobga olish ko'nikmalarini egallaydilar. A.V.Xutorskoy ta'kidlaganidek, kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan amaliy ta'lim talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishda samarali hisoblanadi [3].



Shuningdek, amaliy tayyorgarlik nazariya va amaliyot o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlaydi. Talabalar nazariy fanlar doirasida olgan bilimlarini amaliy mashg'ulotlarda qo'llash orqali ularning mazmunini chuqur anglaydilar. Bu esa bilimlarni mustahkamlash, xatolarni tahlil qilish va kasbiy faoliyatda to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. V.A.Slasyonin fikricha, pedagogik jarayonda amaliy faoliyatning ustuvorligi kasbiy tayyorgarlik samaradorligini oshiradi [4].

Me'morchilik ta'limida amaliy tayyorgarlikning yana bir muhim jihati uning mehnat bozori talablariga mosligidir. Hozirgi kunda ish beruvchilar nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy tajribaga ega bo'lgan, zamonaviy dasturlar bilan ishlay oladigan mutaxassislarni talab qilmoqda. Shu bois oliy ta'lim muassasalarida amaliy mashg'ulotlar ulushini oshirish, ishlab chiqarish amaliyotini samarali tashkil etish va ta'lim jarayoniga real loyihalarni joriy etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi [5].

**Xorijiy tajribalarda me'morchilik mutaxassislarni amaliy tayyorlashni tashkil etish.** Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda me'morchilik mutaxassislarni tayyorlash tizimida amaliy tayyorgarlikka alohida e'tibor qaratiladi. Xorijiy oliy ta'lim muassasalarida me'morchilik ta'limi nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmasdan, talabalarning amaliy

faoliyatini keng qamrab oluvchi ta'lim modellari asosida tashkil etiladi.

Ayniqsa, Evropa mamlakatlari va AQSH oliy ta'lim muassasalarida me'morchilik ta'limi **loyiha-studiyaviy (design studio)** tizimi asosida olib boriladi. Bu tizimda talabalar ta'lim jarayonining asosiy qismini amaliy loyihalar ustida ishlash orqali o'zlashtiradilar. Loyiha-studiyalarda talabalar real shaharsozlik va arxitektura muammolarini tahlil qilish, funksional va estetik yechimlar ishlab chiqish, maket va raqamli modellar yaratish orqali kasbiy ko'nikmalarini shakllantiradilar [6].

AQSHning yetakchi arxitektura maktablarida (Harvard Graduate School of Design, MIT, Columbia University) me'morchilik ta'limida amaliy tayyorgarlik fanlar mazmuniga chuqur integratsiya qilingan. Bu ta'lim muassasalarida talabalar o'qish jarayonida arxitektura byurolari, dizayn studiyalari va qurilish tashkilotlari bilan hamkorlikda amaliy loyihalarni bajaradilar. Bu esa ularning mehnat bozoriga moslashuvchan va raqobatbardosh mutaxassis bo'lib shakllanishiga xizmat qiladi [7].

Evropa mamlakatlarida, xususan Germaniya va Fransiya oliy ta'lim tizimida me'morchilik ta'limi **dual ta'lim elementlari** asosida tashkil etiladi. Bu tizimda nazariy ta'lim oliy ta'lim muassasasida, amaliy tayyorgarlik esa ishlab chiqarish korxonalarida va loyiha tashkilotlarida amalga oshiriladi. Germaniya tajribasida talabalarning



ishlab chiqarish amaliyoti ta'lim dasturining majburiy va uzviy qismi hisoblanadi [8]. Bu amaliyot talabalarda kasbiy mas'uliyat, jamoada ishlash va real ish sharoitiga moslashish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Osiyo mamlakatlari tajribasi ham amaliy tayyorgarlikni kuchaytirishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Yaponiya va Janubiy Koreya oliy ta'lim muassasalarida me'morchilik ta'limida zamonaviy raqamli texnologiyalar, BIM (Building Information Modeling) tizimlari va kompyuterli loyihalash dasturlaridan keng foydalaniladi. Amaliy mashg'ulotlar jarayonida talabalar zamonaviy arxitektura amaliyotida qo'llanilayotgan texnologiyalarni o'zlashtiradilar [9].

Xorijiy tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, me'morchilik ta'limida amaliy tayyorgarlikni samarali tashkil etish quyidagi omillar bilan bog'liq:

- amaliy mashg'ulotlar ulushining yuqoriligi;
- loyiha-studiyaviy ta'limni joriy etish;
- ishlab chiqarish amaliyotini real arxitektura muhiti bilan bog'lash;
- zamonaviy axborot va raqamli texnologiyalardan foydalanish;
- ta'lim muassasalari va ish beruvchilar o'rtasidagi hamkorlik.

Mazkur tajribalar me'morchilik mutaxassislarini tayyorlashda amaliy tayyorgarlikni kuchaytirish ta'lim sifatini oshirishning muhim sharti ekanini ko'rsatadi. Shu bois, ilg'or xorijiy

tajribalarni milliy oliy ta'lim tizimiga moslashtirgan holda joriy etish me'morchilik ta'limini takomillashtirishda muhim metodik ahamiyat kasb etadi.

**Me'morchilik ta'limida amaliy tayyorgarlikni kuchaytirish muammolari.** Oliy ta'lim muassasalarida me'morchilik mutaxassislarini tayyorlash jarayonini takomillashtirishda amaliy tayyorgarlikni kuchaytirishga qaratilgan maxsus metodik tizimni ishlab chiqish zarurati mavjud. Ushbu metodika talabalarda kasbiy kompetensiyalar, loyihaviy tafakkur va ijodiy faollikni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, u quyidagi **pedagogik yondashuvlarga** tayanadi:

- kompetensiyaviy yondashuv;
- loyiha-studiyaviy ta'lim;
- nazariya va amaliyot uyg'unligi;
- faol va interaktiv ta'lim metodlari.

Metodika asosida me'morchilik fanlarini o'qitish jarayonida amaliy mashg'ulotlar ulushi oshirildi, talabalarining mustaqil va ijodiy ishlari kengaytirildi hamda real loyihalar bilan ishlashga yo'naltirilgan topshiriqlar joriy etildi.

**Metodikaning asosiy tarkibiy qismlari:**

**1. Amaliy mashg'ulotlarni qayta tashkil etish**– maketlash, grafik ishlar, BIM dasturlari bilan ishlash;

**2. Loyiha-studiyaviy ta'limni joriy etish**– kurs va semestr loyihalarini kompleks asosda bajarish;



**3. Ishlab chiqarish amaliyotini kuchaytirish**– arxitektura byurolari va qurilish tashkilotlari bilan hamkorlik;

**4. Mustaqil ta'limni faollashtirish**– ijodiy topshiriqlar, portfolio tayyorlash.

**Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o'tkazish.** Tajriba-sinov ishlari oliy ta'lim muassasasining "Me'morchilik" yo'nalishi talabalari ishtirokida olib boriladi. Tadqiqotda jami **60 nafar talaba** qatnashadi.

Talabalar ikki guruhga ajratildi:

**-nazorat guruhi (NG)** – 30 nafar talaba (an'anaviy ta'lim);

**-tajriba guruhi (TG)** – 30 nafar talaba (taklif etilgan metodika asosida).

**Tajriba-sinov bosqichlari:**

**1. Aniqlovchi bosqich** – talabalarning dastlabki bilim va ko'nikmalarini aniqlash;

**2. Shakllantiruvchi bosqich** – amaliy tayyorgarlikni kuchaytirish metodikasini joriy etish;

**3. Nazorat bosqichi** – natijalarni tahlil qilish va taqqoslash.

**Baholash mezonlari:**

- nazariy bilimlar darajasi;
- amaliy ko'nikmalar;
- loyihaviy tafakkur;
- ijodiy faollik.

**Tajriba-sinov natijalari va ularning tahlili.** Tajriba natijalarini baholash uchun ball tizimi qo'llaniladi (100 ballik shkala asosida).

**1-jadval. Talabalarning dastlabki bilim darajasi (aniqlovchi bosqich)**

Guruh	YUqori (%)	O'rta (%)	Past (%)
Nazorat guruhi	20	50	30
Tajriba guruhi	23	47	30

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, tajriba boshida har ikki guruh ko'rsatkichlari deyarli bir xil bo'lgan.

**2-jadval. Tajriba yakunida bilim va ko'nikmalar darajasi**

Guruh	YUqori (%)	O'rta (%)	Past (%)
Nazorat guruhi	27	50	23
Tajriba guruhi	53	37	10

Natijalar shuni ko'rsatadiki, tajriba guruhida yuqori ko'rsatkichga ega talabalar soni sezilarli darajada oshgan, past darajadagi talabalar esa kamaygan.

**3-jadval. Amaliy ko'nikmalar rivojlanish dinamikasi**

T/r.	Ko'rsatkichlar	NG (ball)	TG (ball)
1	Maketlash	68	85



2	Loyihalash	70	88
3	Kompyuter modellash	65	90
4	Ijodiy yondashuv	72	89

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, amaliy tayyorgarlikni kuchaytirishga qaratilgan metodika talabalarning kasbiy ko'nikmalari va ijodiy faolligini oshirishda yuqori samara bergan.

Tajriba-sinov ishlari natijalari taklif etilgan metodikaning samaradorligini tasdiqlaydi. Amaliy tayyorgarlikni kuchaytirish asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarning:

- kasbiy kompetensiyalarini,
- loyihaviy tafakkurini,
- ijodiy faolligini sezilarli darajada rivojlantirishga xizmat qildi.

Shu asosda aytish mumkinki, oliy ta'lim muassasalarida me'morchilik mutaxassislarini tayyorlash jarayonida amaliy tayyorgarlikni kuchaytirishga qaratilgan metodik tizimni joriy etish ta'lim sifatini oshirishning samarali vositasi hisoblanadi.

Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida me'morchilik mutaxassislarini tayyorlash jarayonini amaliy tayyorgarlikni kuchaytirish orqali takomillashtirish masalalari o'rganildi va ilmiy-metodik jihatdan tahlil qilindi. Tahlil natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi.

Me'morchilik ta'limida amaliy tayyorgarlik talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlar, loyiha ishlari va ishlab

chiqarish amaliyoti bilan uyg'unlashtirish talabalarda loyihaviy tafakkur, ijodiy faollik va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishi isbotlandi.

Tahlil jarayonida ishlab chiqilgan amaliy tayyorgarlikni kuchaytirishga qaratilgan metodik tizim (loyiha-studiyaviy ta'lim, amaliy mashg'ulotlar ulushini oshirish, ishlab chiqarish amaliyotini faollashtirish) tajriba-sinov ishlari orqali tekshirildi. Olingan natijalar tajriba guruhidagi talabalarning bilim, ko'nikma va malakalari nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada oshganini ko'rsatdi.

Shuningdek, xorijiy tajribalar tahlili me'morchilik ta'limida amaliy tayyorgarlikni kuchaytirish jahon miqyosida ustuvor yo'nalish ekanini tasdiqladi. Ilg'or xorijiy tajribalarni milliy ta'lim tizimiga moslashtirgan holda joriy etish ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, me'morchilik ta'limida amaliy tayyorgarlik talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish, ijodiy va loyihaviy tafakkurini rivojlantirish, nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash hamda raqobatbardosh mutaxassis tayyorlashda muhim o'rin tutib hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu sababli oliy ta'lim muassasalarida me'morchilik mutaxassislarini tayyorlash jarayonini takomillashtirishda amaliy tayyorgarlikni



kuchaytirish ustuvor metodik yoʻnalishlardan biri sifatida qaralishi maqsadga muvofiqdir.

### **Tahlillar asosida quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:**

1. Meʼmorchilik yoʻnalishida amaliy mashgʻulotlar ulushini oʻquv rejalarida oshirish maqsadga muvofiq.

2. Loyiha-studiyaviy taʼlimni barcha bosqichlarda tizimli ravishda joriy etish lozim.

3. Oliy taʼlim muassasalari va arxitektura byurolari oʻrtasida hamkorlikni kuchaytirish zarur.

4. Talabalarning mustaqil ijodiy ishlarini portfolio asosida baholash tizimini joriy etish tavsiya etiladi.

5. Zamonaviy raqamli texnologiyalar (BIM, 3D modellash)ni amaliy taʼlim jarayoniga keng tatbiq etish lozim.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:**

1. Лихачёв Б.Т. Педагогика. – М.: Юрайт, 2010.
2. Киселёв Н.Н. Архитектурное образование: теория и практика. – М.: Архитектура-С, 2015.
3. Хуторской А.В. Компетентностный подход в образовании. – М.: Эйдос, 2013.
4. Сластёнин В.А. Педагогика профессионального образования. – М.: Академия, 2014.
5. Ibragimov X.I., Yuldashev U.Q. Kasbiy taʼlim metodikasi. – Toshkent: Fan, 2018.
6. Salama A.M. Architectural Education Today: Cross-Cultural Perspectives. – Oxford: Routledge, 2015.
7. Boyer E., Mitgang L. Building Community: A New Future for Architecture Education and Practice. – Princeton: Carnegie Foundation, 1996.
8. Rauner F., Maclean R. Handbook of Technical and Vocational Education and Training Research. – Springer, 2008.
9. Eastman C. et al. BIM Handbook. – Hoboken: Wiley, 2018.
10. Oʻzbekiston Respublikasi “Taʼlim toʻgʻrisida”gi Qonuni.
11. Oliy taʼlim davlat taʼlim standartlari (meʼmorchilik yoʻnalishi).
12. N. U. Abdullaev. Sanʼat tarixi. Toshkent – “Oʻqituvchi” -1986 y.
13. Urinboev, S., & Barnayeva, S. (2023). Principles of Development of Fine Arts in Central Asia. World of Science: Journal on Modern Research Methodologies, 2(4), 45-48.
14. Уринбоев Шакарбой Элибоевич, Назарова Дильшода Мустафаевна. (2023). ЭРОН, АФГОНИСТОН ВА ХИНДИСТОНДА ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИ АРХИТЕКТУРАСИ. Международный журнал по образованию, социальным и гуманитарным наукам. Издательство академических исследований Финляндии, 11(4), 482–487. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7812410>



15. Шахло Барнаева | Шакарбой Уринбаев «Творческая триада в художественной жизни Самарканда 30-х годов XX века» Опубликовано в Международном журнале тенденций научных исследований и разработок (ijtsrd), ISSN: 2456-6470, Спецвыпуск | Инновационное развитие академических исследований и разработок во время Covid 19, май 2021 г., стр. 9-10, URL: <https://www.ijtsrd.com/papers/ijtsrd43707.pdf>

16. Shakarboy Eliboyevich O.,rinbojev, & Dilshoda Mustafayevna Nazarova. (2023). O'ZBEKISTON SHAHARLARIDA ZAMONAVIY BINOLAR KO'PAYGANLIGI SABABLI SHAHAR LANDSHAFTI VA ISTIROHAT BOG'LAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI. *ME'MORCHILIK VA QURILISH MUAMMOLARI (ILMIY TEXNIK JURNALI)*, 1(1), 72–75. извлечено от <https://uzshaharsoz.uz/index.php/j/article/view/20>

17. Шакарбой Элибоевич Уринбоев и Туркман Эсанов. (2023). МЕСТО ЧЕРТЕЖНОЙ НАУКИ В ОБЛАСТИ АРХИТЕКТУРНО-ДИЗАЙНЕРСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ. *Международный междисциплинарный исследовательский журнал Galaxy*, 11 (5), 455–460. Получено с <https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/4051>.

18. O'rinbojev Shakarboy Eliboyevich *SamDAQU "San'at" kafedراسi "Dotsent" v.b.* International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS) Volume. 7, Issue 04, April (2024) **TASVIRIY SAN'AT TURLARI** <https://doi.org/10.5281/zenodo.10929809>

19. Новикова Е.Б. Интерьер общественных зданий. Художественные проблемы. Издание 2-е, дополненное и переработанное. – М.: Стройиздат, 1991. – 366 с.

20. Щенков А.С. Архитектурное наследие на рубеже 20-21 веков: Проблемы реставрации и охраны наследия, 2014.

21. O'rinbojev Shakarboy Eliboyevich, Naimova Ma'mura Abdumalikovna. AMERICAN JOURNAL OF EDUCATION AND LEARNING. BINO ARXITEKTURASIDA HAYKALTAROSHLIK BEZAKLARINING TADRIJIY RIVOJLANISHI. Volume-3| Issue-3| 2025 Published: |30-03-2025|. <https://zenodo.org/records/15015336>